

NUTQNING BOYLIK KOMMUNIKATIVLIGIDA SINONIMIYA HODISASI

Xaydarova Muborak

Termiz davlat universiteti Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili talabasi

xaydarovam@gmail.com

+998 88 699 19 07

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18692520>

Annotatsiya: Mazkur maqolada nutqning kommunukativ sifatlaridan biri hisoblangan boylik sifati va uning asosiy tamoyili — sinonimlarning shakllanishi va uning qo'llanish doiralaridagi leksik xilma-xillik, uslubiy o' haqida o'zgalik jihatlari haqida so'z boradi. Shuningdek, mazkur tamoyilning og'zaki va yozma shaklda namoyon bo'lishi doirasida fikrlar beriladi.

Kalit so'zlar: til, nutqning boyligi, sinonimlar, so'z, leksema, uslub, emotsional-ekspressivlik, yozma va og'zaki nutq, ma'no.

АННОТАЦИЯ: В данной статье речь пойдет о качестве богатства, являющегося одним из коммуникативных качеств речи, и его основополагающем принципе — о лексическом разнообразии синонимов и сфер их применения, о стилистических особенностях. данной статье речь пойдет о качестве богатства, являющегося одним из коммуника.

Ключевые слова: язык, богатство речи, синонимы, слово, лексема, стиль, эмоционально-экспрессивная окраска, письменная и устная речь, значение.

ANNOTATION: This article will focus on the quality of wealth, which is one of the communicative qualities of speech, and its fundamental principle — the lexical diversity of synonyms and their fields of application, and stylistic features. This article will focus on the quality of wealth, which is one of the communicators.

Keywords: language, richness of speech, synonyms, word, lexeme, style, emotional-expressive richness, written and oral speech, meaning.

Jamiyatda kishilararo kommunikatsiya jarayonida hamda o'zaro fikrlar almashinuvida muhim ahamiyatga ega bo'lgan birlik til sanalsa, inson lisonida mavjud bo'lgan fikr va g'oyalar ifodasi nutq hisoblanadi va kommunikatsiya jarayonida so'zlarning, avvalo, to'g'ri aks etishi, mantiqan maqsadga muvofiq kelishi, yot unsurlardan xoli bo'lishi, ta'sir kuchiga ega bo'lishi barobarida undagi rang-baranglik, xilma-xillik bevosita sifatli nutqni tashkil etish jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Tilshunoslik nuqtayi nazarida esa yuqoridagi xususiyatlar jamlanmasi nutqning kommunikativ sifatlari (to'g'rilik, aniqlik, mantiqilik, soflik, ifodaviylik, jo'yalilik, boylik)ni tashkil etadi¹ va nafaqat nutqning xilma-xilligiga, balki tilning boyligini ta'minlashda esa **sinonim**larning o'rnini alohida e'tiborga olish lozim. Boisi bir so'zning qanchalik ko'p ko'rinishda ma'nodoshlarga ega bo'lishi hamda nutqning so'zlar rang-barangligi asosida tuzilishi o'sha tilning lug'at boyligini ko'rsatib beradi. Bu borada taniqli rus tilshunosi Aleksey Aleksandrovich Reformatkiyning: "Tilning boyligi undagi sinonimlarning ko'pligi bilan belgilanadi"² hamda o'zbek tilshunosligi va leksikologiya bo'yicha yetuk olim Shavkat Rahmatullayevning: "Tilning leksik boyligi, avvalo, sinonimik qatlamning rivojlanganligi bilan

¹Хайдарова, М. «Теория и практика качества коммуникативной речи». Восточный филологический журнал, том 5, № 06, дек. 2025 г., стр. 296-03, doi:10.37547/supsci-ojp-05-06-42.

² Reformatky A. A. Vvedeniye v yazykznaniye [Introduction to linguistics]. – 2016.

belgilanadi. Sinonimlar tilning ma'no nozikliklarini ifodalash imkonini kengaytiradi³ degan nazariyalarini dalil sifatida keltirishimiz mumkin. Alohida ta'kidlash joizki, A.Hojiyev o'zbek tilshunosligida sinonimiya hodisasining ta'riflanishi o'zining qamrovliligi bilan e'tiborga molik ekanligini ta'kidlagan⁴.

Sinonimlar tushunchasi shaklan farq qilivchi, biroq mazmun jihatidan bir umumiy ma'noni ifodalovchi birliklarlar anglatadi. Ushbu so'zlardagi muhim jihat bir umumiy ma'no doirasida birlasha olishdir. Deylik, "ko'p", "ancha", "bisyor", "talay", "mo'l", "serob" so'zlari qisman uslub jihatidan farq qilsa-da, mohiyatan ularning barchasi me'yordan ortiqlikni ifodalaydi. Yuqoridagi masalaga tahlillar orqali yondashadigan bo'lsak, birgina "chiroyli" so'zining o'rniga "go'zal", "sohibjamol", "barno", "mafunkor", "xushro'y", "zebo", "latofatli"⁵ kabi so'zlarni muloqot jarayonida qo'llash so'zlovchining so'z boyligini ko'rsatish baravarida, undagi ortiqcha so'zlar takrorining miqdorini ham yetarli darajada kamaytiradi. Shuningdek, sinonimlar nutqni takrorlardan xoli etish bilan cheklanmay, tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytirib, nutqni yanada mukammal qiladi.⁶ Bu jihatni esa "tushunmoq" so'zining "anglamoq", "fahm etmoq", "idrok etmoq". "ilg'amoq" kabi ko'rinishlarida guvohi bo'lishimiz mumkin.

Tilning qanchalar boy ekanligini ko'rsatib beruvchi ko'rsatib beruvchi sinonimlarning shakllanish jarayoni ham o'ziga xos usullar orqali, xususan, boshqa tillardan o'zlashtirish yoxud dialektal birliklar orqali kengayib, o'z-o'zini yanada boyitib boraveradi. Misol uchun, sof o'zbek tiliga tegishli bo'lgan "o'qituvchi" so'zining arab tilidan o'zlashgan "muallim", rus tilidan tilimiz tarkibiga singgan "pedagog" hamda fors-tojik tilidan kirib kelgan "domla" so'zlari bilan ma'nodoshlik munosabatiga kirisha olishi o'z va o'zlashma qatlamlararo sinonimlik hodisasini ko'rsatadi. Shuningdek, dastlab Xorazm shevasi tarkibida mavjud bo'lib, keyinchalik adabiy til tarkibiga kirgan "mengzamoq" so'zining "o'xshamoq", "monand bo'lmoq" so'zlari bilan mazmunan yaqinlikni hosil qilishi shevaga doir leksemalarning ham sinonimlarni shakllantirishini yoritib beradi.

Biroq shuni ham ta'kidlash joizki, sinonimlar mazmunan yaqin ma'nolarni ifodalasa-da, ular stilistik, emotsional-ekspressivlik, kontekstga muvofiqlik hamda og'zaki va yozma nutqqa xoslik jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan, "katta" so'zining "ulkan", "bahaybat" kabi ma'nodoshlari, asosan, og'zaki nutqda tez-tez uchrasa, "azamat", "ulug'", "azim" shakllaridan esa yozma nutqda ko'proq foydalanamiz; Stilistik nuqtayi nazardan yondashadigan bo'lsa, "gapirmoq" so'zining "bayon qilmoq", "taqdim etmoq" sinonimlari, asosan, rasmiy, "demoq", "aytmoq" leksemalari so'zlashuv, "suhbatlashmoq", "nutq so'zlamok" ko'rinishlari esa publitsistik, "yoritmoq", "ta'riflamoq" shakllari ilmiy hamda "so'ylamoq" so'zi esa badiiy uslubda qo'llanilishi bilan farq qiladi; Sinonimlarning bo'yoqdorlik jihatiga ko'ra farqlanish xususiyatini esa evfemizlar va disfemizlarning hissiy ta'sir doirasida ko'rishimiz mumkin. Masalan, "o'lmoq" tushunchasining "asfalasofiliniga ravona bo'lmoq", "to'ng'iz qo'pmoq" kabi sinonimik qatori salbiylikni ifodalashi hamda "qazo qilmoq", "omonatini topshirmoq"

³ Rahmatullayev S. Hozirgi o'zbek adabiy tili //T:" Universitet. – 2006.

⁴ O'zbek tili sinonimlarning katta izohli lug'ati. N.Mahmudov tahriri ostida. I J. G'afur G'ulom, Toshkent, 2022. B.6.

⁵ Sinonim.uz <https://sinonim.uz/words/chiroyli>

⁶ G'ulomovna B. M. O 'ZBEK TILIDA SINONIMLARNING NUTQDAGI ROLI //Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions. – 2026. – T. 3. – №. 1. – C. 83-86.

kabilarning esa nozik ma'no ifodalashi o'rtasidagi tafovutdan anglashimiz mumkin; shuningdek, sinonimlarning qo'llanish holatlari ham mantiqan to'g'rilikni va maqsadga muvofiqlikni alohida talab etadi. Misol tariqasida, garchi "og'ir" va "mushkul" so'zlari mazmunam yaqinlikni hosil qilsa-da, nutqiy jarayonlarda tuziladigan jumlalarda, xususan, mushkul yuk, mushkul tosh (aslida, bu holatda "og'ir" so'zidan foydalanish maqsadga muvofiq) birikmalarida sinonimlardan anglashiniladigan ma'no tubdan farq qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sinonimlar tilining boyligini hamda nutqning rang-barangligi va ifodaviyligini ta'minlab beruvchi vosita hisoblanadi; So'zlovchining nutqidan takrorlarni oldini olish, fikrni ravon bayon etish hamda xilma-xillikni o'zida mujassamlashtiradi va eng muhimi madaniy nutqning asosiy tamoyilini shakllantirish bilan nutqning boyligi sifatini ko'rsatib berish bilan chambarchas bog'liq. Biroq ma'nodosh so'zlardan foydalanish jarayonida ular o'rtasidagi leksik, pragmatik tafovutlarni alohida e'tiborga olish tilning asl boyligi ko'rsatishda va imkoniyatlarni to'g'ri baholashda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Хайдарова, М. «Теория и практика качества коммуникативной речи». Восточный филологический журнал , том 5, № 06, дек. 2025 г., стр. 296-03, doi:10.37547/supsci-ojp-05-06-42.
2. Reformatsky A. A. Vvedeniye v yazykoznaniye [Introduction to linguistics]. – 2016.
3. Rahmatullayev S. Hozirgi o'zbek adabiy tili //T:" Universitet. – 2006.
4. O'zbek tili sinonimlarning katta izohli lug'ati. N.Mahmudov tahriri ostida. I J. G'afur G'ulom, Toshkent, 2022. B.6.
5. Sinonim.uz <https://sinonim.uz/words/chiroyli>
6. G'ulomovna B. M. O'zbek tilida sinonimlarning nutqdagi roli //Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions. – 2026. – T. 3. – №. 1. – C. 83-86.